**SAMARQAND VILOYATI NUROBOD TUMANI HOKIMINING**

# QARORI

2025-yil 12-sentabr | 205-7-99-Q/25 | Nurobod tuman hokimligi

## Tumanda bo‘sh turgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini hisobga olish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining $21^1$-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 6 va $45^1$-moddalari, 2022-yil 24-avgustdagi “Mulk huquqining daxlsizligini ishonchli himoya qilish, mulkiy munosabatlarga asossiz aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, xususiy mulkning kapitallashuv darajasini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-198-sonli hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmonlariga muvofiq

**QAROR QILAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-dekabrdagi “Hududlarda yuqori iqtisodiy o‘sish va aholi bandligini ta’minlashning yangi tizimini yo‘lga qo‘yish hamda bu borada mahalliy hokimliklarning roli va mas’uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-223-sonli Farmoniga asosan yer uchastkasiga bo‘lgan huquqlar Yer kodeksining 36-moddasida belgilangan tartibda bekor qilinganda, ushbu yer uchastkalarini davlat mulkidagi bo‘sh turgan yer sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish to‘g‘risida tuman hokimlariga qaror qabul qilish vakolati berilganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda yerdan foydalanuvchilar tomonidan qishloq xo‘jaligi yer maydonlaridan ixtiyoriy ravishda voz kechish to‘g‘risidagi notarial tartibda tasdiqlangan arizalarini inobatga olgan holda ilovaga muvofiq yer maydonlari tuman hokimligi tasarrufiga bo‘sh turgan yer uchastkalari sifatida belgilangan tartibda qaytarib olinsin va davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali (M.Muxtorov) qonunchilikda belgilangan tartibda yer uchastkalarini davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan

o‘tkazish, kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish hamda yer hisobotlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritilishini ta’minlasin.

4. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (G‘.Musirmanov) davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazish xarajatlarini belgilangan tartibda tuman mahalliy byudjeti hisobidan moliyalashtirish choralarini ko‘rsin.

5. Tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi, Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali, “O‘zdavyerloyiha” DILI “Samvilyerloyiha” bo‘linmasi bilan birgalikda tuman hokimligi nomiga davlat mulki sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan yer uchastkalarini belgilangan tartibda ochiq elektron savdolariga chiqarish choralarini ko‘rsin.

6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari – tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i v.v.b S.Mirzoxodjayev zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **M.Buranov**

Nurobod tumani hokimining
2025-yil 12-sentabrdagi
205-7-99-Q/25-son qaroriga
1-ilova

# Tumanda bo‘sh turgan yer uchastkasi sifatida ro‘yxatga olinayotgan yer uchastkalari to‘g‘risida

## MA’LUMOT

| № | Yer uchastkasiga bo‘lgan huquqi bekor qilinayotgan yerdan foydalanuvchilar nomi | Bo'sh turgan yer uchastkasi sifatida ro'yxatga olinayotgan yer uchastkalari | | Jami yer maydoni | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Yer maydoni joylashgan hudud | Kontur raqami | | suvli | lalmi | boshqa yerlar |
| 1 | “Nurafshon sog‘lomlashtirish” MCHJ | Sazag‘on massivi | 314q | 0,30 | | 0,30 | |
| 2 | “Uktam Umar” FX | Qorakulcha massivi | 154q-155q | 3,00 | 3,00 | | |
| 3 | “Sipki Olmazor bog‘lari” MCHJ | Toshquduq massivi | 2594q | 10,00 | | 10,00 | |
| 4 | Eshmamatova Zarifa Odil qizi | A.Temur massivi | 89q | 0,50 | 0,50 | | |
| 5 | Soatov Abbos Fayzulla o‘g‘li | Ulus massivi | 1935q | 0,50 | 0,50 | | |
| 6 | Urolova Rayxon Abdiqahor qizi | Jom massivi | 488q | 0,40 | | 0,40 | |
| 7 | Musayev Saxob Bobomurod o‘g‘li | A.Temur massivi | 429q | 0,50 | 0,50 | | |
| 8 | Ostonova Bibisora Elmurodovna | A.Temur massivi | 155q | 0,50 | 0,50 | | |
| 9 | Jabborova Muyassar Burxonali qizi | A.Temur massivi | 133q | 0,50 | 0,50 | | |
| 10 | Ostanov Olim Narmamadovich | A.Temur massivi | 155q | 0,50 | 0,50 | | |
| 11 | Usmanova Dilnur Zafarjon qizi | A.Temur massivi | 518q | 0,50 | 0,50 | | |
| 12 | Suyunov Boburjon Otabek o‘g‘li | Ulus massivi | 2518q | 0,98 | 0,98 | | |
| 13 | Qarshiyeva Marhabo Xolbutayevna | Ulus massivi | 2518q | 0,99 | 0,99 | | |
| 14 | Mirxakimov Isomiddin Bahodir o‘g‘li | Olg‘a massivi | 348q | 0,99 | 0,99 | | |
| **14** | **Tuman jami** | | **15** | **20,16** | **9,46** | **10,70** | **0,00** |